O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNCHILIK HUJJATLARIDA MUALLIFLIK SHARTNOMASI TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN FUQAROVIY-HUQUQIY JAVOBGARLIK MASALASI

Mustafoyev Maqsud Amrullo o‘g‘li
Seysmik xavfsizlik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti
mustafoevmaksud@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada mualliflik shartnomasi talablarini buzganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda sohaga doir boshqa qonun hujjatlarida belgilangan fuqaroviy-huquqiy javobgarlikning umumiy tavsifi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada mualliflik shartnomasini tuzish bo‘yicha kelishuvga erishgan shaxslar qanday talablarga rioya qilishlari kerakligi, ushbu talablarga rioya qilmaslik qanday javobgarliklarni keltirib chiqarishi mumkinligi muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *mualliflik huquqi, mualliflik shartnomasi, mulkiy huquqlar, huquq egasi, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, umumiy usul, maxsus usul, kompensatsiya.*

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatining yuritilishini ta’minlash, jamiyatda intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakllantirish, intellektual mulk egalarining qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, Fuqarolik kodeksi hamda “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonunlarda intellektual mulk himoyasini tartibga soluvchi huquqiy normalar tubdan qayta ko‘rib chiqilib, tegishli tartiiibda takomillashtirib borilmoqda. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanishi, intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishi mustahkamlandi [1].

Bu borada, ayniqsa, mualliflik huquqini muhofaza qilishning shartnomaviy-huquqiy asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish, asarlardan foydalanishda,

ayniqsa mualliflik shartnomasida taraflarning huquq va majburiyatlarini qat’iy belgilashda qo‘llanadigan turli vosita hamda usullarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi yillarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilishiga doir da’volar soni ko‘payib bormoqda. Badiiy asarlarni, audiovizual asarlarni himoya qilish amaliyoti, ya’ni ushbu huquqlar doirasida sudlarda ko‘rib chiqilgan ishlar mualliflar huquqlarini himoya qilish masalasi asosiy ustuvor yo‘nalishga aylanib borayotganini ko‘rsatmoqda.

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, Adliya vazirligi tomonidan 2019–2022 yillar davomida mualliflik va turdosh huquqlarning buzilish holati yuzasidan iqtisodiy sudlarda 136, ma’muriy sudlarda 65, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda 21, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda 2 ta ish ko‘rib chiqilgan va sudlar tomonidan tegishli qarorlar qabul qilingan. Sud qarorlariga muvofiq 216 nafar shaxsdan 297 million so‘m miqdorida ma’muriy jarima undirilgan.

Umuman olib qaraganda, intellektual mulk sohasida 2019-yildan 2025-yil 1-yarmigacha jami 355 ta iqtisodiy nizolar bilan bog‘liq sud protsesslari ko‘rilgan bo‘lib, ularning 207 tasi qanoatlantirilgan [2].

Bu shuni anglatadiki, mualliflar yildan-yilga o‘zlarining huquqlarini talab qilish bo‘yicha qonunchilik normalar va tartiblarini puxta o‘zlashtirib bormoqda. Biroq, boshqa tomondan, ushbu ko‘rsatgichlar mualliflik huquqlarini himoya qilish sohasida hali qilinadigan ishlar hali ko‘p ekanligini anglatadi.

Muhokama va natijalar

Ushbu maqolada mualliflik shartnomasida nazarda tutilgan talablarni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda sohaga doir boshqa qonun hujjatlari asosida himoya qilish mexanizmlari hamda javobgarlikni qo‘llash haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Mualliflik shartnomasi – muallif o‘z mulkiy huquqlarini boshqa shaxsga mutlaq yoki nomutlaq tarzda o‘tkazishni nazarda tutuvchi shartnoma hisoblanadi.

Ushbu shartnomaga binoan muallif foydalanuvchiga haq evaziga, shartlashilgan usulda va belgilangan muddatda asardan foydalanish huquqini berishni, foydalanuvchi esa asardan o‘ziga berilgan huquqqa muvofiq foydalanish va haq to‘lash majburiyatini zimmasiga oladi. Mualliflik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonunining 38-moddasida mualliflik shartnomasiga doir talablar belgilangan. Mualliflik shartnomasida quyidagilar nazarda tutilishi kerak:

❖ asardan foydalanish usullari (shartnoma asosida o‘tkaziladigan aniq huquqlar doirasi);

❖ asardan foydalanishning har bir usuli uchun to‘lanadigan haq miqdori yoki to‘lanadigan haq miqdorini belgilash tartibi, shuningdek, uni to‘lash tartibi hamda muddatlari. [3]

Mualliflik shartnomasida taraflar o‘zlari uchun zarur deb topgan boshqa shartlarni ham nazarda tutishlari mumkin.

Umumiy qoidaga ko‘ra, 18 yoshdan oshgan shaxslar muallif yoki huquq egasi sifatida o‘z huquqlarini himoya qilishlari mumkin. Shu bilan birga, Fuqarolik kodeksining 27-moddasiga asosan, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ham sudda fan, adabiyot va san’at asarining, ixtironing yoki o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa natijasiga mualliflik huquqini mustaqil ravishda himoya qilishga haqli [4]

Qonunchilikka muvofiq, mualliflar o‘zlarining intellektual faoliyat natijalariga nisbatan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo‘ladilar. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda mulkiy huquqlar boshqa shaxslarga tegishli bo‘lishi (masalan, xizmat asari) yoki shaxsiy nomulkiy huquqlar mavjud bo‘lmasligi (masalan, fonogramma, efir yoki kabel orqali ko‘rsatuv yoxud eshittirish) ham mumkin. Shuningdek, muallif mulkiy huquqlarini boshqa shaxslarga o‘tkazgan yoki o‘tkazmaganligidan qat’iy nazar, shaxsiy nomulkiy huquqlarini har qanday buzilishlardan himoyalash maqsadida sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Bunda muallif yoki huquq egasi o‘z huquqlarini har qanday buzilishlardan himoya qilish, litsenziya shartnomasi, intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqni to‘liq yoki qisman o‘tkazish haqidagi shartnomadan kelib chiquvchi hamda mualliflar yoki huquq egalari o‘rtasidagi nizolar, shuningdek uchinchi shaxslarning intellektual mulk obyektlaridan foydalanganligi natijasida yetkazilgan zararni undirish, tovar belgisiga doir guvohnomani muddatidan oldin to‘liq yoxud qisman tugatish haqidagi talablar fuqarolik ishlari bo‘yicha yoki iqtisodiy sudlar tomonidan hal etiladi [5].

Qonunchilik normalariga ko‘ra, quyidagilar mualliflik shartnomasi talablarini buzish hisoblanadi:

➢ mualliflarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini buzish;

➢ ijrochining ismi-sharifga bo‘lgan va ijroni har qanday tarzda buzib ko‘rsatilishidan yoki har qanday boshqacha tarzda tajovuz qilinishidan himoya qilish huquqlarini buzish;

➢ huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquqlar obyektini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish, qonunchilikka muvofiq shunday foydalanishga shartnoma tuzmasdan yo‘l qo‘yiladigan hollar bundan mustasno;

➢ qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda haq to‘lash to‘g‘risidagi talablarni buzish;

➢ asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha olingan huquqlarni oshirib yuborgan holda foydalanish;

➢ huquq egalarining mulkiy huquqlarini boshqacha tarzda buzish.

Mualliflik yoki huquq egasining huquqlari umumiy va maxsus usullarda himoya qilinishi mumkin.

Umumiy usul Fuqarolik kodeksining 11-moddasida belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra fuqarolik huquqlarini himoya qilishning barcha usullari mualliflik huquqi obyektlariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Maxsus usul esa Fuqarolik kodeksining 1040- va 1107-moddalarida begilangan bo‘lib, mutlaq huquqlar qaysi moddiy obyektlar yordamida buzilgan bo‘lsa:

➢ o‘sha moddiy obyektlarni hamda bunday buzish natijasida yaratilgan moddiy obyektlarni olib qo‘yish;

➢ yo‘l qo‘yilgan buzish haqidagi ma’lumotni majburiy suratda e’lon qilib, unga buzilgan huquq kimga tegishliligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish;

➢ tovar belgisidan qonunga xilof ravishda foydalanayotgan shaxs tomonidan tayyorlab qo‘yilgan tovar belgisi tasvirlarini yo‘q qilish, qonunga xilof ravishda foydalanayotgan tovar belgisini yoki almashtirib yuborish darajasida unga o‘xshash bo‘lgan belgini tovardan yoxud uning idishi va o‘rovidan yo‘qotish, bunday talablarni bajarish imkoniyati bo‘lmaganda esa tegishli tovar yo‘q qilib tashlanishi mumkin.

Yuqoridagilarga ko‘ra, muallif yoki huquq egasi tomonidan uning huquqlari buzilganligi to‘g‘risida sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilganda, huquqbuzardan quyidagilarni talab qilishga haqli:

➢ huquqlarni tan olishini;

➢ huquq buzilishidan oldingi holatni tiklashini va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini yuzaga keltiradigan harakatlarni to‘xtatishini;

- huquq egasining huquqi buzilmagan taqdirda, u fuqarolik muomalasining odatdagi sharoitlarida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadi miqdoridagi zararlarning o‘rnini qoplashini. Agar huquqbuzar mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlarni buzish oqibatida daromadlar olgan bo‘lsa, huquq egalari boshqa zararlar bilan bir qatorda boy berilgan foydani bunday daromadlardan kam bo‘lmagan miqdorda qoplashini;
- zararlar yetkazilishi faktidan qat’i nazar, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning aybi darajasidan kelib chiqib ish muomalasi odatlarini hisobga olgan holda zarar qoplanishi o‘rniga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan ming baravarigacha miqdorda to‘lanishi lozim bo‘lgan tovonni to‘lashini;
- qonunchilikda belgilangan huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralar ko‘rishini.

Shu bilan birga, muallif yoki huquq egasi huquqbuzardan ma’naviy ziyon qoplanishini talab qilishga haqlidir.

Bundan tashqari, agar huquqni buzgan shaxs buning natijasida daromad olgan bo‘lsa, huquqi buzilgan shaxs boshqa zarar bilan bir qatorda boy berilgan foyda bunday daromaddan kam bo‘lmagan miqdorda to‘lanishini talab qilishga haqli.

Xulosa

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida mualliflik huquqi hamda turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib, mualliflarning huquqlarini himoyalashni bugungi kun talablariga moslashtirish zarur.

Jumladan, chet el davlatlari tajribasidan ko‘rishimiz mumkinki, mualliflik huquqlarini buzganlik uchun fuqaroviy javobgarlik masalasida ham qonunchilikda aniq jarimalar miqdori belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston qonunchiligi normalarida ham shu kabi aniq miqdorlarni belgilab qo‘yish maqsadga muqvofiq hisoblanadi.

Bu o‘zgartirish va qo‘shimchalar o‘z navbatida, jamiyatda intellektual mulk huquqiga bo‘lgan hurmat hissini shakllantirish, intellektual mulk egalarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, kontrafakt mahsulotlarning aylanmasi hamda mualliflik huquqlari buzilishini kamaytirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. https://lex.uz/docs/6445145;

2. Sudlar faoliyati bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar https://stat.sud.uz/economical;

3. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g’risida”gi Qonuni. 20.07.2006-yildagi O‘RQ-42-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 28-29-son, 260-modda. https://lex.uz/docs/-1022944;

4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi – T.; “Adolat” nashriyoti, 2015. – 153 b. https://lex.uz/uz/docs/-180552;

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 23.06.2023-yildagi “Intellektual mulkka oid ishlarni ko‘rib chiqishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 19-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6522606.